MASS-MEDIANING O‘ZBEKISTON TEXNOLOGIK TARAQQIYOTIGA TA'SIRI: KONTENT-TAHLIL, TIL-USLUB VA QIYOSIY TADQIQOT NATIJALARI

Mamarasulov Umidjon Alijon o‘g‘li

Xalqaro Nordik Universiteti 2-bosqich magistranti .

Telefon: +998-91-486-28-20, Pochta: umidjonjurnalist@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning to‘rtta yetakchi internet nashri — Daryo.uz, Kun.uz, Gazeta.uz va UzA — misolida ommaviy axborot vositalarining (OAV) texnologik taraqqiyotni ta'minlashdagi roli, mexanizmlari va samaradorligi empirik tadqiqot orqali tahlil qilingan. 2020–2025-yillarning mart-aprel oylarida chop etilgan 2200 dan ortiq texnologik mavzudagi material asosida kontent-tahlil, janriy-uslubiy tahlil va qiyosiy tahlil metodlari qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, texnologik materiallar soni o‘rtacha 175,1 foizga o‘sgan (CAGR: 22,1–24,5%). Biroq materiallarning 64 foizi “modernizatsion-optimistik” freym doirasida yoritilayotgani, tahliliy materiallar ulushi (19,3%) xalqaro ko‘rsatkichlardan past ekanligi aniqlangan. Terminologik zichlik koeffitsiyenti (TZK=0.34) yuqori, ammo tushuntirish indeksi past bo‘lib, auditoriyaning texnologik kontentni to‘liq o‘zlashtirish darajasini cheklaydi. Tadqiqot natijalari asosida media, ilm-fan va sanoat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan Media-kommunikatsion integratsion modeli (MKIM) taklif qilingan.

Kalit so‘zlar: ommaviy axborot vositalari, texnologik taraqqiyot, innovatsion kommunikatsiya, kontent-tahlil, freym tahlili, til va uslub, terminologik zichlik, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston.

1. Kirish

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ommaviy axborot vositalari texnologik taraqqiyotning muhim kommunikatsion institutiga aylanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda innovatsiyalarning ijtimoiy qabul qilinishi ko‘p jihatdan mediadagi texnologik diskurs sifatiga bog‘liq [Rogers, 2003; Castells, 1996]. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida bu aloqadorlik yetarli darajada o‘rganilmagan.

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilinganidan (2020) beri raqamlashtirish jarayonlari jadallashib, IT Park rezidentlari soni 700 dan (2021) 2384 ga (2024) yetdi; IT-xizmatlar eksporti esa 176,26 mln dollardan 619,74 mln dollargacha — ya`ni 2,5 martadan ortiq — o‘sdi [IT Park Uzbekistan, 2024]. Bunday tezkor texnologik o‘sish sharoitida OAV bu jarayonlardagi roliga doir savol dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi: birinchidan, O‘zbekistonda texnologik jurnalistikaning tizimli empirik o‘rganilmaganligi; ikkinchidan, raqamli transformatsiya sharoitida OAV rolining tobora ortib borishi; uchinchida, mediadagi texnologik diskurs sifatini baholash uchun amaliy asosning yo‘qligi. Bundan tashqari, O‘zbekiston aholisining 70 foizdan ortig‘i 30 yoshdan past bo‘lib, raqamli auditoriya doimiy o‘sish tendensiyasini namoyon etmoqda.

Tadqiqot quyidagi asosiy savollarga javob beradi: O‘zbekiston internet OAVlarida texnologik materiallar qanday dinamikada o‘smoqda? Bu materiallarning janriy tuzilmasi va freym xususiyatlari qanday? Texnologik mavzularni yoritishda til va uslub jihatdan qanday muammolar mavjud? Xalqaro tajriba bilan solishtirganda qaysi yo‘nalishlarda tizimli kamchiliklar kuzatilmoqda?

2. ADABIYOTLAR SHARHI

OAVning texnologik taraqqiyotdagi roli ko‘plab nazariy konsepsiyalar orqali asoslanib kelmoqda. Everett Rogersning innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasi [2003] OAVni yangi texnologiyalarning jamiyatga kirib borishidagi birlamchi katalizator sifatida tavsiflaydi: innovatsiya tarqalishining “bilim” va "ishontirish" bosqichlarida OAV hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Manuel Kastels [1996] esa “tarmoq

jamiyati” konsepsiyasida axborot-kommunikatsiya tizimlari innovatsion rivojlanishning asosiy drayveriga aylanganini asoslaydi.

Yurgen Habermasning [1989] “ommaviy soha” nazariyasi OAVni fuqarolik jamiyati va texnologik siyosat o‘rtasidagi muhim vosita sifatida ko‘radi. Niklas Lumannning funksional tizimlar nazariyasi [2000] bo‘yicha OAV jamiyatning o‘zini o‘zi kuzatishi uchun asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Texnologik jurnalistika sohasida Robert Entman [1993] freym nazariyasi media tomonidan texnologik voqealarni talqin qilishdagi interpretatsion ramkalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Til va uslub masalasida I.Toshaliyev va R.Abdusattorov [2006] OAV tilini publitsistik uslubning alohida ko‘rinishi sifatida ta'riflaydi: u axborot uzatish, ta'sir etish va ifodalash vazifalarini bir vaqtda bajaradi. G.Bakiyeva va D.Teshabayevalar [2019] ta'kidlashicha, OAV nutqining ta'sirchan va tushunarli bo‘lishi raqamli axborot asrining muhim talabi hisoblanadi. Paul Gilster [1997] raqamli savodxonlikni axborotni raqamli muhitda tanqidiy baholash va samarali qo‘llash qobiliyati sifatida izohlaydi.

O‘zbekiston kontekstida texnologik jurnalistikani tizimli o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar soni hali cheklangan. Mavjud ishlar asosan media tizimining umumiy rivojlanishi va transformatsiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, texnologik diskursning empirik tahlili kamdan-kam uchraydi. Shu sababli ushbu tadqiqot milliy ilmiy adabiyotdagi bo‘shliqni qisman to‘ldiradi.

3. METODOLOGIYA

Tadqiqot sifat va miqdoriy usullar kombinatsiyasiga asoslangan. Tadqiqot davri 2020–2025-yillarning mart-aprel oylarini qamrab oladi. Boshlang‘ich sana sifatida 2020-yil tanlanishining sababi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasining aynan shu yil qabul qilinishi hisoblanadi.

Tadqiqot obyekti — O‘zbekistonning to‘rtta yetakchi internet nashri: Daryo.uz, Kun.uz, Gazeta.uz va UzA. Mazkur platformalar auditoriya qamrovi va ijtimoiy ta'sir darajasi yuqori bo‘lgan milliy internet OAV sifatida tanlab olindi. Jami 2200 dan ortiq texnologik mavzudagi material tahlil qilindi; janriy tahlil uchun har bir nashrdan tasodifiy tanlash (random sampling) usuli orqali 200 tadan, jami 800 ta material saralab olindi. Terminologik tahlil uchun esa alohida 450 dan ortiq material o‘rganildi.

Texnologik mavzularga mansub materiallar quyidagi kalit so‘zlar orqali aniqlandi: “sun'iy intellect”, “raqamli transformatsiya”, “innovatsiya”, “startap”, “IT”, “kiberxavfsizlik”, “elektron hukumat”, “Sanoat 4.0”, “Big Data”, “blockchain” va boshqalar.

Tadqiqotda to‘rtta asosiy usul qo‘llanildi: Kontent-tahlil (Berelson, 1952; Krippendorff, 2013): texnologik materiallarning janriy tuzilmasi, freymlar va diskursiv xususiyatlari o‘rganildi. Terminologik-uslubiy tahlil: terminologik zichlik koeffitsienti (TZK), tushuntirish indeksi va mahalliy kontekst ulushi o‘lchandi. Statistik tahlil: absolyut o‘sish, nisbiy o‘sish, CAGR va standart og‘ish ko‘rsatkichlari hisoblandi.

Freym tahlilida Entman [1993] metodologiyasi asosida uchta kategoriya aniqlandi: modernizatsion-optimistik, muammoga yo‘naltirilgan va tanqidiy-tahliliy. Kodlovchilararo ishonchlilik qabul qilinuvchi darajada yuqori deb topildi.

Tadqiqot faqat to‘rtta nashr doirasida amalga oshirilgani natijalarni barcha O‘zbekiston OAViga to‘liq tatbiq qilish imkoniyatini qisman cheklaydi. Faqat mart-aprel oylari o‘rganilgani yillik tendensiyalarni to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Terminologik tahlildagi sub'ektivlik xavfi ikki mustaqil kodlovchi tomonidan nazorat qilindi.

4. NATIJALAR

Tadqiqotning birinchi bosqichida texnologik mavzudagi materiallarning miqdoriy dinamikasi o‘rganildi. Kontent-tahlil natijalari barcha nashrlarda texnologik kontent hajmi ortib borayotganini ko‘rsatdi. Ushbu tendensiya 1-jadval ma'lumotlarida aks ettirilgan.

1-jadval.

Innovatsiya va texnologiya mavzusidagi materiallar soni (2020–2025, mart-aprel oylar)

Nashr	2020	2021	2022	2023	2024	2025	Jami	O‘sish %	CAGR %
Daryo.uz	62	78	95	118	142	168	663	+171,0	22,1
Kun.uz	54	71	89	112	138	161	625	+198,1	24,5
Gazeta.uz	47	59	72	88	104	119	489	+153,2	20,4
UzA	38	51	64	79	93	105	430	+176,3	22,6
Jami	201	259	320	397	477	553	2207	+175,1	22,4

Nashrlar kesimida eng yuqori o‘sish sur’ati Kun.uz da kuzatildi (CAGR = 24,5%). Biroq mazkur nashr o‘rganilayotgan davr boshida nisbatan past bazaviy ko‘rsatkichga ega bo‘lganligini ham hisobga olish lozim. Mutlaq hajm jihatidan esa Daryo.uz yetakchi o‘rinni egallab, olti yil davomida jami 663 ta texnologik material e’lon qilgan. Gazeta.uz va UzA da ham ijobiy o‘sish tendensiyasi kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning sur’atlari nisbatan mo‘tadil bo‘lib qolgan.

Mazkur tendensiyani izohlovchi asosiy omillardan biri sifatida 2020-yilda qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining OAV kun tartibiga ko‘rsatgan ta’sirini qayd etish mumkin. Kun tartibini belgilash nazariyasiga ko‘ra, davlat siyosatida ustuvor deb e’tirof etilgan masalalar ommaviy axborot vositalarida ham faol yoritila boshlaydi (McCombs & Shaw, 1972). Ikkinchi muhim omil sifatida esa mamlakat IT sektorining jadal rivojlanishini ko‘rsatish mumkin. Jumladan, IT Park Uzbekistan rezidentlari soni 2021-yildagi 700 tadan 2024-yilda 2384 tadan oshib, texnologik yangiliklar va innovatsion loyihalar sonining ko‘payishiga zamin yaratgan.

IT Park ko‘rsatkichlari va media bilan bog‘liqligi

Ma’lumotlar tahlili IT sektorining barcha asosiy indikatorlari bo‘yicha barqaror va yuqori sur’atdagi o‘sishni ko‘rsatadi. Xususan, rezident kompaniyalar soni uch yilda qariyb 3,4 baravarga, IT-xizmatlar eksporti hajmi esa 176,26 million AQSH dollaridan 619,74 million AQSH dollarigacha oshgan. Shuningdek, IT-eksportchi kompaniyalar soni 104 tadan 936 taga yetib, eksport geografiyasi 15 mamlakatdan 78 mamlakatgacha kengaygan.

Mazkur o‘sish ommaviy axborot vositalaridagi texnologik kontent hajmining ortishi bilan parallel ravishda kechgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, OAVda faol yoritilgan startaplarning investitsiya jalb qilish imkoniyatlari mediada kam yoritilgan loyihalarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Bu holat Rogersning innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasida qayd etilgan ommaviy kommunikatsiya vositalarining innovatsiyalarni qabul qilish jarayonidagi muhim rolini amaliy jihatdan tasdiqlaydi (Rogers, 2003).

Shu bilan birga, kontent tahlili texnologik ko‘rsatkichlarning aksariyat hollarda mustaqil ekspertiza va tanqidiy tahlilsiz, asosan rasmiy axborot manbalari asosida yoritilayotganligini ko‘rsatdi. Bu esa texnologik jurnalistikada nazorat va tahlil funksiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligidan dalolat beradi.

2-jadval.

IT Park Uzbekistan asosiy ko‘rsatkichlari (2021–2024)

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024

Ko‘rsatkich	2021	2022	2023	2024
Rezidentlar soni	700+	1 075	1 652	2 384+
IT-xizmatlar eksporti (mln $)	176,26	270,28	440,97	619,74
IT-eksportchi kompaniyalar soni	104	352	551	936
Ishchilar soni (ming kishi)	10	19	26	36,3+
Eksport geografiyasi (mamlakat)	15	46	58	78

Janriy tuzilma tahlili

Natijalar texnologik jurnalistikada axborot janri mutlaq ustunlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiq etilgan materiallarning o‘rtacha 49,5 foizi yangilik janrida e’lon qilingan bo‘lib, bu texnologik voqealarning asosan faktologik yoritilishi bilan cheklanayotganligini anglatadi.

Tahliliy maqolalar ulushi o‘rtacha 19,3 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich texnologik jurnalistika rivojlangan davlatlarda kuzatiladigan 25–40 foizlik diapazondan sezilarli darajada pastdir. Nashrlar orasida Kun.uz tahliliy materiallar ulushi bo‘yicha nisbatan yuqori natija qayd etgan (28%), bu esa mazkur nashrda ekspertlik va sharhlovchi jurnalistika elementlari ko‘proq rivojlanganligini ko‘rsatadi.

UzA da esa axborot janrining ulushi 67 foizni tashkil etib, nashrning asosan rasmiy axborot tarqatish funksiyasini bajarishini aks ettiradi. Reportaj va intervyu janrlari barcha nashrlarda o‘rtacha darajada rivojlangan bo‘lsa-da, multimedia va interaktiv formatlar ulushi 5–9 foiz oralig‘ida qolmoqda.

Aynan multimedia komponentlarining sust rivojlanganligi texnologik jurnalistikaning eng muhim kamchiliklaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Daryo.uz boshqa nashrlarga nisbatan infografika va interaktiv elementlardan faolroq foydalansa-da, uning ko‘rsatkichlari Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlar bilan taqqoslaganda ancha pastdir. Manovich (2001) ta’kidlaganidek, vizual va interaktiv formatlar murakkab texnologik jarayonlarni auditoriyaga tushuntirishning samarali vositasi hisoblanadi. Shu sababli mazkur yo‘nalishdagi imkoniyatlar O‘zbekiston OAVida hali to‘liq ishga solinmagan.

3-jadval.

Materiallarning janriy tuzilmasi (%, n=800)

Janr kategoriyasi	Daryo.uz	Kun.uz	Gazeta.uz	UzA	O‘rtacha
Axborot (yangilik)	41	38	52	67	49,5
Tahliliy maqola	22	28	18	9	19,3
Intervyu	16	19	13	11	14,8
Reportaj	12	9	10	8	9,8
Infografika/Multimedia	9	6	7	5	6,6
Jami	100	100	100	100	100

4.4. Texnologik diskursdagi freymlar

Freymlar tahlili natijalari texnologik mavzudagi materiallarning aksariyati modernizatsion-optimistik yondashuv asosida qurilganligini ko‘rsatdi. Tadqiq etilgan materiallarning 64 foizida texnologiyalar iqtisodiy o‘sish, davlat xizmatlari samaradorligini oshirish va xalqaro raqobatbardoshlikni mustahkamlash vositasi sifatida talqin qilingan.

Muammoga yo‘naltirilgan materiallar ulushi 28 foizni tashkil etgan bo‘lsa, tanqidiy-tahliliy freymdagi materiallar atigi 8 foizni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich Janubiy Koreya, Singapur va Estoniya kabi mamlakatlar bilan taqqoslaganda 3–4 baravar pastdir.

Leksik tahlil natijalari ham ushbu tendensiyani tasdiqlaydi. Tadqiq etilgan materiallarda ijobiy baholovchi birliklar salbiy baholovchi birliklarga nisbatan taxminan 4:1 nisbatda ustunlik qilgan. “Innovatsion”, “zamonaviy”, “ilg‘or”, “inqilobiy” va “ulkan imkoniyat” kabi birliklar muntazam qo‘llanilgan bo‘lsa, texnologik taraqqiyotning ehtimoliy xavflari, jumladan, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi va mehnat bozori transformatsiyasi masalalari nisbatan kam yoritilgan.

Mazkur holat texnologik jurnalistikada techno-optimism tendensiyasining ustunligini ko‘rsatadi (Winner, 1980; Postman, 1993).

4-jadval.

Texnologik diskursdagi freymlar tahlili

Freym turi	Ta'rifi	Ulushi (%)	Asosiy nashrlar
Modernizatsion-optimistik	Texnologiya = rivojlanish drayveri; muammosiz tavsif	64	Daryo.uz, Kun.uz, UzA
Muammoga yo‘naltirilgan	Texnologik muammolar va ularning yechimlari	28	Gazeta.uz, Kun.uz
Tanqidiy-tahliliy	Texnologiyaning ijtimoiy-etik oqibatlari mustaqil baholanadi	8	Gazeta.uz (qisman)

4.5. Til-uslub va terminologik tahlil

Leksik-uslubiy tahlil texnologik materiallarda to‘rtta asosiy leksik qatlam mavjudligini ko‘rsatdi: internatsional texnologik terminlar, o‘zbek tiliga tarjima qilingan atamalar, metaforik birliklar va baholovchi leksika.

Tahlil natijalariga ko‘ra, texnologik terminlarning taxminan 36 foizi xalqaro shaklda qo‘llanilgan bo‘lib, ularning 68 foizi izohsiz yoki moslashtirilmasdan ishlatilgan. Bu esa keng auditoriya uchun axborotni qabul qilish jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Tarjima qilingan terminlarda esa izchillik muammosi kuzatildi. Xususan, “artificial intelligence” atamasi turli materiallarda “sun’iy intellekt”, “sun’iy zehn” va “AI texnologiyasi” shakllarida uchradi. Terminologik bir xillikning yo‘qligi texnologik jurnalistika sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Terminologik zichlik koeffitsienti Daryo.uz va Kun.uz da eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi (TZK≈0,34). Biroq tushuntirish darajasi har doim ham ushbu ko‘rsatkichga mos kelmaydi. Tahlil qilingan materiallarning 34 foizida sarlavha va asosiy matn mazmuni o‘rtasida muayyan nomuvofiqlik aniqlangan.

Shuningdek, ayrim texnologik atamalarning noto‘g‘ri tarjima qilinishi ham qayd etildi. Masalan, “open source” atamasining “bepul dastur” sifatida talqin qilinishi yoki “hallucinate” terminining texnologik kontekst e’tiborga olinmasdan “gallyutsinatsiya” tarzida tarjima qilinishi mazmuniy aniqlikka putur yetkazadi.

5-jadval.

Texnologik materiallardagi leksik qatlamlar tahlili

Leksik qatlam	Ulushi (%)	Asosiy muammo	Misol
Xalqaro texnologik terminlar (internatsionalizmlar)	~36%	68% i o‘zbekchaga moslashtirilmasdan qo‘llanilgan	blockchain, startup, API, cloud — izohsiz
O‘zbek tiliga tarjima qilingan atamalar	~28%	Terminologik izchillikning yo‘qligi	“AI” — sun'iy intellekt/zehn/texnologiya — bir xil tushuncha uchun turli variantlar
Metaforik va obrazli ifodalar	~22%	Uslubiy shablonlashuv xavfi	“raqamli poyga”, “innovatsion ekotizim”, “sun'iy intellektning aqli”
Baholovchi leksika	~14%	Musbat baholash (4:1) ustunligi — biryoqlama tasvir	“inqilobiy”, “ilg‘or”, “ulkan imkoniyat”

5. Muhokama

5.1. Miqdoriy o‘sish va sifat ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik

Tadqiqotning muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, O‘zbekiston internet OAVlarida texnologik mavzularning yoritilishi sezilarli darajada faollashgan bo‘lsa-da, mazkur jarayon sifat ko‘rsatkichlarining mutanosib rivojlanishi bilan kechmayapti. Olingan natijalar texnologik jurnalistikaning asosan axborot yetkazishga yo‘naltirilgan model asosida shakllanayotganini, tahliliy va tanqidiy yondashuvlar esa ikkilamchi o‘rinda qolayotganini ko‘rsatdi.

Mazkur holat McCombs va Shaw (1972) tomonidan ilgari surilgan kun tartibini belgilash nazariyasi nuqtayi nazaridan izohlanishi mumkin. Davlat darajasida raqamlashtirish siyosatining ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi ommaviy axborot vositalarida ham texnologik mavzularning faollashuviga olib kelgan. Biroq tadqiqot natijalari texnologik taraqqiyot masalalarini yoritishda rasmiy diskursning ustunligi saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Natijada OAV ko‘pincha texnologik siyosatni mustaqil baholovchi institut sifatida emas, balki mavjud narrativlarni keng auditoriyaga yetkazuvchi kommunikativ vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Entman (1993) freym nazariyasiga ko‘ra, OAV voqelikni ma’lum interpretatsion ramkalar orqali auditoriyaga taqdim etadi. Tadqiqot davomida aniqlangan optimistik-modernizatsion yondashuv texnologiyalarni asosan taraqqiyot, innovatsiya va iqtisodiy o‘sish manbai sifatida talqin qilishga moyillik mavjudligini ko‘rsatdi. Bunday yondashuv innovatsion faoliyatga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirishga xizmat qilishi mumkin, biroq texnologik rivojlanishning murakkab ijtimoiy oqibatlarini ikkinchi darajaga surib qo‘yish xavfini ham yuzaga keltiradi.

Winner (1980) ta’kidlaganidek, texnologiyalar o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy va siyosiy xarakterga ega. Shu sababli ularni faqat texnik taraqqiyot vositasi sifatida talqin qilish texnologik transformatsiyaning jamiyatdagi real ta’sirini to‘liq aks ettirmaydi.

5.2. Terminologik nomuvofiqlik va kommunikativ samaradorlik muammosi

Tadqiqot davomida aniqlangan terminologik nomuvofiqliklar texnologik jurnalistikaning eng muhim muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Bir xil texnologik tushunchalarning turli shakllarda qo‘llanishi nafaqat axborotning lingvistik yaxlitligiga, balki uning auditoriya tomonidan qabul qilinishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Gregory va Miller (2000) ilmiy kommunikatsiyaning asosiy vazifasi murakkab ilmiy bilimlarni auditoriya uchun tushunarli shaklda yetkazishdan iborat ekanligini ta’kidlaydi. Tadqiqot natijalari esa texnologik terminlardan foydalanish bilan ularning mazmunini izohlash o‘rtasida muayyan nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu holat texnologik axborotning ommaboplashuvi jarayonini murakkablashtirib, auditoriyada kognitiv to‘siqlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Terminologik tartibsizlikning asosiy sabablari sifatida texnologik terminlarni standartlashtirish mexanizmlarining shakllanmaganligi hamda ixtisoslashgan texno-jurnalistlar sonining cheklanganligini ko‘rsatish mumkin. Toshaliyev va Abdusattorov (2006) qayd etganidek, terminologik izchillik ilmiy va ommaviy kommunikatsiyaning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, texnologik terminologiyani standartlashtirish institutsional yondashuv orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda ham texnologik terminlarni muvofiqlashtirish va ilmiy ekspertizadan o‘tkazish mexanizmlarini shakllantirish zarurati mavjud.

5.3. Multimedia jurnalistikasi salohiyatining yetarli darajada ishga solinmaganligi

Raqamli media muhitida multimedia formatlari jurnalistikaning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Manovich (2001) hamda Pavlik (2001) tadqiqotlari vizual va interaktiv kommunikatsiya murakkab axborotni auditoriyaga yetkazishda an’anaviy matnli formatlarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston internet OAVlarida multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari hali to‘liq amalga oshirilmayotganini ko‘rsatdi. Ayniqsa, sun’iy intellekt, blokcheyn, katta ma’lumotlar (Big Data) va kiberxavfsizlik kabi murakkab texnologik mavzularni yoritishda vizual tushuntirish elementlarining yetishmasligi kuzatiladi.

Mazkur holatni faqat texnik resurslar yetishmasligi bilan izohlash yetarli emas. Tahlil natijalari muammo tahririyat siyosati, mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi va vizual jurnalistikaga bo‘lgan institutsional yondashuv bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli texnologik jurnalistika rivojlanishining keyingi bosqichida ma’lumotlar jurnalistikasi, infografika va interaktiv formatlarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lishi lozim.

5.4. Texnologik taraqqiyotda OAV funksiyalarining amalga oshirilish darajasi

Tadqiqot natijalari OAVning texnologik taraqqiyotdagi klassik funksiyalari turli darajada amalga oshirilayotganini ko‘rsatdi.

Axborot-kommunikativ funksiya nisbatan samarali bajarilmoqda. Texnologik yangiliklar muntazam yoritilishi va kontent hajmining ortishi bu funksiyaning faol ishlayotganini ko‘rsatadi. Biroq Lasswell (1948) modeli nuqtayi nazaridan qaralganda, kommunikatsiyaning yakuniy natijasi — auditoriyaning bilimlari, qarashlari va xulq-atvoridagi o‘zgarishlar masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Ta’limiy funksiya esa terminologik murakkablik va tushuntirish elementlarining yetishmasligi sababli to‘liq amalga oshmayotgan ko‘rinadi. Innovatsion targ‘ibot funksiyasi aksincha, nisbatan samarali ishlamoqda. OAV innovatsion loyihalar va startaplarning ommalashuviga ma’lum darajada hissa qo‘shayotganligi kuzatildi.

Nazorat funksiyasi esa nisbatan zaif rivojlangan yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ldi. Texnologik siyosat, raqamli boshqaruv, kiberxavfsizlik va ma’lumotlar maxfiyligi masalalari bo‘yicha mustaqil ekspertiza va tanqidiy jurnalistika elementlari yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa OAVning jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi imkoniyatlarini cheklaydi.

5.5. Texnologik jurnalistikaning institutsional rivojlanish omillari

Tadqiqot natijalari texnologik jurnalistikaning rivojlanishini cheklayotgan bir qator institutsional omillar mavjudligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, ixtisoslashgan kadrlar muammosi dolzarbligicha qolmoqda. Texnologik jarayonlarni chuqur tahlil qilish jurnalistdan nafaqat jurnalistik kompetensiyalarni, balki IT va innovatsion ekotizim bo‘yicha bazaviy bilimlarni ham talab qiladi. UNESCO (2013) tavsiyalarida ham texnologik va ilmiy jurnalistika uchun maxsus tayyorgarlik muhim omil sifatida qayd etilgan.

Ikkinchidan, media bozorining iqtisodiy modeli texnologik jurnalistikaning mazmuniga ta’sir ko‘rsatmoqda. Vartanova (2020) ta’kidlaganidek, reklama daromadlariga yuqori darajada bog‘liq media tizimlarida tezkor axborot ustuvorlik kasb etadi, chuqur tahliliy materiallar esa ko‘proq resurs talab qilgani sababli ikkinchi planga suriladi.

Uchinchidan, media, ilm-fan va texnologik sektor o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi ekspert manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur uch sektor o‘rtasidagi integratsiya texnologik jurnalistika sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekiston internet OAVlarida texnologik mavzularning yoritilishi yangi rivojlanish bosqichiga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Biroq mazkur jarayonning sifat jihatidan takomillashuvi texnologik jurnalistika institutsional asoslarini mustahkamlash, terminologik standartlashtirishni yo‘lga qo‘yish, multimedia imkoniyatlaridan kengroq foydalanish hamda mustaqil tahliliy jurnalistika elementlarini rivojlantirish bilan bevosita bog‘liqdir.

6. XULOSA

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston internet ommaviy axborot vositalarining mamlakat texnologik taraqqiyotidagi o‘rni va ta’sirini kompleks tahlil qilishga bag‘ishlandi. Tadqiqot natijalari texnologik mavzularning media makonidagi ulushi so‘nggi yillarda izchil ortib borayotganligini hamda texnologik jurnalistika O‘zbekiston axborot maydonining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanayotganini ko‘rsatdi.

Tahlillarga ko‘ra, texnologik mavzularning faol yoritilishi mamlakatda raqamlashtirish siyosatining kengayishi, IT sektorining rivojlanishi va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. OAV ushbu jarayonlarni ommalashtirish, innovatsiyalar haqidagi axborotni jamoatchilikka yetkazish va texnologik tashabbuslarning ko‘rinuvchanligini oshirishda muhim kommunikativ funksiyani bajarmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot texnologik jurnalistikaning rivojlanishida qator muammolar mavjudligini ham aniqladi. Xususan, axborot janrining ustunligi, tahliliy materiallar ulushining nisbatan kamligi, texnologik jarayonlarni tanqidiy baholash elementlarining cheklanganligi hamda multimedia formatlaridan foydalanish darajasining pastligi texnologik kontentning sifat jihatidan takomillashuviga to‘sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, terminologik nomuvofiqliklar va texnologik atamalarning bir xilda qo‘llanmasligi auditoriyaning mazkur kontentni qabul qilish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot davomida texnologik jurnalistikaning samaradorligini oshirishga qaratilgan Media-kommunikatsion integratsion model (MKIM) ishlab chiqildi. Mazkur model ilmiy muassasalar, texnologik kompaniyalar, startap ekotizimi va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali texnologik axborotning sifati va ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan. Modelning asosiy afzalligi texnologik kontent yaratish, tarqatish va auditoriya bilan qayta aloqa jarayonlarini yagona kommunikativ tizim sifatida ko‘rib chiqishidadir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- jurnalistika ta’limi dasturlariga texnologik jurnalistika va raqamli savodxonlik bo‘yicha maxsus modullarni joriy etish;
- texnologik terminlarni standartlashtirish maqsadida jurnalistlar, tilshunoslar va IT sohasi mutaxassislaridan iborat ekspert platformasini shakllantirish;
- tahririyatlarda tahliliy va tushuntiruvchi materiallar ulushini oshirish;
- multimedia jurnalistikasi, ma’lumotlar jurnalistikasi va interaktiv formatlardan foydalanishni kengaytirish;
-OAV, ilmiy muassasalar va texnologik sektor vakillari o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda O‘zbekiston internet OAVlarining texnologik taraqqiyotdagi roli kontent tahlili asosida tizimli ravishda o‘rganildi hamda texnologik jurnalistikaning rivojlanish omillari va muammolari aniqlandi. Tadqiqot natijalari texnologik jurnalistika nazariyasini rivojlantirish, media siyosatini takomillashtirish va amaliy jurnalistika faoliyatida foydalanish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlarda auditoriyaning texnologik kontentni qabul qilish xususiyatlarini empirik o‘rganish, ijtimoiy tarmoqlardagi texnologik diskursni tahlil qilish hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasi bilan qiyosiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakiyeva G.X., Teshabayeva D.M. Ommaviy axborot vositalari tili: darslik. Toshkent: O‘zkitobsavdonashriyot, 2019. B.181.
2. Berelson, B. (1952). Content Analysis in Communication Research. New York: The Free Press.
3. Castells, M. (1996). The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers.
4. Entman, R.M. (1993). Framing: Toward clarification of a fractured paradigm. Journal of Communication, 43(4), 51–58.
5. Freeman, C. (1987). Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. London: Pinter Publishers.
6. Gilster, P. (1997). Digital Literacy. New York: Wiley Computer Publishing.
7. Gregory, J., Miller, S. (2000). Science in Public: Communication, Culture, and Credibility. New York: Plenum Trade.

8. Habermas, J. (1989). The Structural Transformation of the Public Sphere. Cambridge: MIT Press.
9. IT Park Uzbekistan. (2024). Annual Report 2023. Toshkent: IT-Park. https://it-park.uz
10. Krippendorff, K. (2013). Content Analysis: An Introduction to Its Methodology (3rd ed.). London: SAGE.
11. Lasswell, H.D. (1948). The Structure and Function of Communication in Society. In L. Bryson (Ed.), The Communication of Ideas. Harper & Row.
12. Luhmann, N. (2000). The Reality of the Mass Media. Cambridge: Polity Press.
13. Manovich, L. (2001). The Language of New Media. Cambridge: MIT Press.
14. McCombs, M.E., Shaw, D.L. (1972). The agenda-setting function of mass media. Public Opinion Quarterly, 36(2), 176–187.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni: "Raqamli O‘zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. https://lex.uz/docs/-5030957
16. Pavlik, J. (2001). Journalism and New Media. New York: Columbia University Press.
17. Postman, N. (1993). Technopoly: The Surrender of Culture to Technology. New York: Vintage Books.
18. Rogers, E.M. (2003). Diffusion of Innovations (5th ed.). New York: Free Press.
19. Romer, P.M. (1990). Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 98(5), S71–S102.
20. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
21. Solow, R.M. (1957). Technical Change and the Aggregate Production Function. Review of Economics and Statistics, 39(3), 312–320.
22. Toshaliyev I., Abdusattorov R. Ommaviy axborotning tili va uslubi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zMU, 2006. B.248.
23. UNESCO. (2013). Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. Paris: UNESCO.
24. Uzbekistan ICT Service Exports (BOP). CEIC Data. https://www.ceicdata.com/en/uzbekistan/telecommunication/uz-ict-service-exports-bop
25. Vartanova E. (2020). Teoriya i ekonomika media kak aktual'nye napravleniya mediaissledovaniy. Media al'manakh. S. 8–14.
26. Winner, L. (1980). Do Artifacts Have Politics? Daedalus, 109(1), 121–136.